ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

# PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

# FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

# ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/№ 1,1

Termiz – 2025

**Muassis:**
**Termiz davlat universiteti**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.01.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

**Tahririyat manzili:**
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

**BOSH MUHARRIR:**
Abduqodir TOSHQULOV,
*iqtisod fanlari doktori, professor*

**TAHRIR HAY’ATI:**
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova,(PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

**Учредитель:**
**Термезский государственный университет**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**
**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.01.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

**Адрес редакции:**
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР**:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, (PhD), доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, (PhD), доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

**Institutor:**
**Termez State University**

**PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION**

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM**

**ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ**

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.01.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

**EDITOR IN-CHIEF**:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

**EDITORIAL BOARD:**

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

# М У Н Д А Р И Ж А

## TILSHUNOSLIK

**AMINOVA DILNOZA**
Brending va imij tushunchalarining nazariy tavsifi ..... 7

**QODIROV UMARJON AKRAMJON O‘G‘LI**
Shonazar Shoabdurahmonov Qo‘qon shevasi xususiyatlari haqida .....11

**NAZAROVA ZIYODA KATTAYEVNA**
Frazeologik birliklarni idiomalardan farqlashning muhim ahamiyati .....14

**QIYOMIDINOVA NILUFAR QAXRAMON QIZI**
Ijtimoiy tarmoqlarning lingvistik dinamikasi:
evolyutsiya, o‘ziga xoslik va raqamli davr ta’siri .....17

**BO‘RONOV NAZIM MUSTAFAQULOVICH**
Feyk yangiliklarga qarshi kurashishda milliy va xalqaro tajriba .....22

**MUSURMONQULOV ADHAM ABDURASHID O‘G‘LI**
Tilshunoslikda uyadosh so‘zlar lug‘atini
yaratishning maydon nazariyasidagi talqini .....27

**SOBIROVA FERUZA ISLOMJON QIZI**
Saylovoldi dasturlarda nutqiy manipulyatsiya.....30

**XOLMATOVA GO‘ZAL BAXODIROVNA**
Internet-media ergonimlarining struktur-semantik tahlili
(o‘zbek va ingliz tillarida) .....35

**ASHUROV BOBIR SHAKIROVICH**
Sud-ekspertiza lingvistikasi: nazariy asos va metodologik talqin .....38

**ROZUMBETOVA XILOLA UMAR QIZI**
To‘rtko‘l tumani oykonimlarining leksik-semantik tahlili.....42

**TOJIBOYEV ILXOMJON USMONOVICH**
Lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik paradigmaning
asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida .....47

# МУНДАРИЖА

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA**
Halk dessanlarynyň beýik şahyr Magtymguly pyragy
döredijiligine çeperçilik täsiri ..... 49

**KODIROVA SAODAT ABDIRAXIMOVNA**
Badiiy asarlardagi maqollarning evolyutsiyasi
(“Zarbulmasal” asari misolida) ..... 52

**АБДУЛЛАЕВ МАХМУД АХМАТОВИЧ**
Таджикское литературоведение о вкладе Садриддина Айни
в изучении узбекско-таджикских литературных связей ..... 55

**DUSIMBETOVA NARGIZA BAXTIYAROVNA**
Bo‘lajak jurnalistlarning transmedia ko‘nikmalarini shakllantirish
va o‘rgatish jarayonining metodikasi ..... 58

## TA’LIM

**МАМЕДОВА НАРГИЗА ЗИРАДДИНОВНА**
Современные методы преподавания русского языка ..... 58

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

# TILSHUNOSLIKDA UYADOSH SO'ZLAR LUG'ATINI YARATISHNING MAYDON NAZARIYASIDAGI TALQINI

**Musurmonqulov Adham Abdurashid o'g'li,**
*Termiz davlat pedagogika instituti*
*o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

Tilimizdagi barcha leksikalarni maydon metodi asosida tadqiq etish eng samarali hamda qulay usullardan biridir. Ko'pchilik tilshunoslar tomonidan til birliklarining leksik-semantik munosabat asosida bir-biri bilan bog'langanligi ta'kidlanadi. Har qaysi tilda so'zlarning o'ziga xos bo'lgan, ya'ni faqat shu tilga xos bo'lgan mazmuniy guruhlari mavjud bo'lib, ularning alohida belgilari boshqa tillar bilan ochiladi.

"Mazmuniy maydon to'g'risida bir qancha tadqiqotchilar xilma-xil fikrlarga ega bo'lishiga qaramay, lingvistlar tomonidan belgilangan ayrim nazariy masalalarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

1) til lug'at tarkibi birliklarning tartibsiz yig'indisidan iborat emas, u so'zlarning semantik umumiyligi asosida birlashuvchi bir qancha mazmuniy uyalarga ajraladi;

2) har bir mazmuniy maydon shu til uchun xos bo'lgan alohida usul bilan o'zi aks ettirgan borliqni tarkibiy qismlarga ajratish;

3) so'zning semantik mazmuni o'z-o'zidan kelib chiquvchi narsa hisoblanmaydi, u maydon ichidagi boshqa so'zlar (birliklar) bilan zidlanishlar vositasida yuzaga keladi."[1] Mazmuniy maydon haqidagi nazariya struktural semantikaga doir nazariya bo'lishi uchun mazmuniy maydonlar obyektiv tarzda ajratilishi lozim, shuningdek, mazmuniy uyalarning struktur nazariyasi ma'nolarni komponent tahlil qilish o'rinlidir.

"Professor E.Begmatov leksikada sistemalilik haqida fikr yuritib, tilshunoslikda tilning lug'aviy boyligini sistema sifatida tasavvur qilish va ilmiy tasniflash usullari haqida quyidagilarni keltiradi:

1) so'zlarni so'z turkumlariga ajratish usuli, ya'ni so'z turkumlari sistemasi;

2) so'zlarni yasalish modellariga ko'ra tasnif qilish usuli, ya'ni so'z yasash usullari;

3) so'zlarni funksional-stilistik guruhlarga ajratish usuli, ya'ni so'zlarning stilistik-differentsial guruhlari;

4) so'zlarni ma'lum mavzu guruhlariga ajratish usuli, ya'ni so'zlarning mavzu guruhlari va boshqalar."[2] Yuqoridagi usullar lug'at tarkibidagi lug'aviy boylikning muayyan qirralari yuzasidan to'liq bo'lmasa-da, ma'lum ilmiy tasavvurlarni yuzaga chiqara oladi.

Tilimizdagi so'zlarni mana shu asosda tasnif qilish tilshunoslikda so'zlarning uyadosh guruhlari yoki so'zlarning uyadoshlik qatori deb nomlangan. So'zlarni uyadosh guruhlarga ajratish so'zlarni ularning ma'nosiga va nominatsion funksiyasiga ko'ra o'xshash qatorlarga jamlashni ko'zda tutadi. Demak, so'zlarning uyadoshlik qatorlari deganda bir umumiy mavzu, g'oya atrofiga birlashgan (uyg'unlashgan) so'zlarni muayyan guruhlarga (temalarga) jamlash tushuniladi.

Tilga maydon sifatida yondashuv, tilni mazmuniy sistema asosida o'rganish sharq tilshunoslik olamida juda qadimdan mavjud bo'lib, xususan, leksikografiya doirasida ko'plab salmoqli ishlar bajarilib, muvaffaqiyatlarga erishilgan. Hozirgi bu yondashuv Yevropa tilshunosligi asosida o'zbek tilshunosligiga kirib keldi va til birliklarini mazmuniy maydon tarzida tadqiq etishda shu tilshunoslikka nisbat berildi. Bu fikrning isboti sifatida ba'zi fikrlarni keltirib o'tishimiz o'rinlidir. Binobarin, VIII-IX asrlarda yurtimiz hududida "Baytul-hikmat", 1010-yilda esa Ma'mun akademiyasi tashkil qilinganligi va ushbu akademiyalarda dunyo fanlariga o'zining munosib hissalarini qo'shib kelgan olimlarimizning yetishib chiqqanligi fikrimizni isbotlaydi. Yurtimiz hududida yetishib chiqqan bir qator olimlar davrlar mobaynida turli xalqlar, elatlar bosimi ostida bo'lganligi (jumladan, arab, ruslar ta'sir doirasida bo'lgan davrlar) ham yurtimiz ilm-fanning madaniy markazi sifatida qaralishiga to'sqinlik qilgan. Tilshunoslik doirasida mazmuniy maydon, ideografik yondashuvning dastlabki shakllari aynan Yevropa tilshunosligida emas, balki bizda avvaldan tasnif etilganligini yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar yuzasidan asoslashimiz mumkin. Tilshunoslik tarixidan

[1] Апресян Ю. Д. Дистрибутивный анализ значений и структурные семантические поля. – Лексикографический сборник. Вып. У. – М., 1962. – С. 53.

[2] Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент, 1985. – 116 б.

ham ma'lumki, uyadosh so'zlar lug'atini yuzaga keltirish alohida qiymatga ega bo'lgan. Har bir predmetni, nomlarni guruhlashga urg'u berilgan. Masalan, o'simliklar nomi, hayvonlar nomi, osmon jismlari nomi tarzida. Uyadosh lug'atlarning maqsadi butun borliq elementlari haqidagi tushunchalarning qanday moddiy vositalar bilan ifodalanishini ochib berishdan iboratdir. Shunga binoan, uyadosh lug'atlar borliq + borliqning ongda qaror topishi + nom tamoyili asosida ish ko'radi deyishimiz mumkin. "V.V.Morkovkin, Y.N.Karaulovlar fikriga ko'ra, "tushunchadan" "so'z"-ga, "konsept"dan "belgi"ga o'tiladi."[1] Uyadoshlik asosidagi ideografik lug'atlarning yuzaga kelishi dastlab Sharq tilshunosligiga aloqador bo'lsa-da, lekin shu kungacha ideografik lug'at yaratish Yevropa bilan bog'langan hamda Roje, Kasares, Rober, Dornzayf nomlari bilan bog'lab kelinadi. Rus tilshunosligida ideografik lug'at yaratish tamoyillari bilan shug'ullangan Karaulov ham bunday lug'at yaratish Yevropadan boshlanganini e'tirof etgan.

Lug'at boyligini tashkil etuvchi so'zlar orasidagi o'zaro aloqadorlik, bunga xos qonuniyatlar, bu asosda yuzaga keluvchi sistemalilik tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlariga, leksikaga, shuningdek, tashqi faktorlarning ta'sirida yuzaga keladigan muayyan kuchlarga tayanadi. "Bular quyidagilardan iborat:

1) so'zlarning o'zaro ma'no munosabatlari bilan bog'liq kuchlar (masalan, sinonimlar, dubletlar, antonimlar, omonimlar, ko'chma ma'noli so'zlar va hokazo);

2) so'zlarning yasalish imkoniyatlari, turli so'zlarning o'zaro munosabati va ularning ma'lum leksik-semantik guruhlar (masalan, so'z turkumlari)ga birlasha olish kuchi;

3) so'zlarning nutqning o'zaro qo'shila olish, bog'lana olish va yonma-yon kela olish kuchi;

4) so'zlarning uslubiy talab va nutqiy ehtiyojlarga ko'ra ma'lum guruhlarga moslasha olish kuchi."[2] Mohiyat nuqtayi nazaridan lingvistik va nolingvistik omillarga asoslanuvchi kuchlar til lug'at tarkibidagi ma'lum lug'aviy sektorlar sistemaliligini ko'rsatuvchi asosiy dalillardir.

Til lug'at sostavini tashkil etuvchi leksik birliklarga tayanuvchi so'zlar mavjud. Bu so'z lug'aviy ma'nosining real borliqqa va tushunchaga munosabatidir. Boshqacha qilib aytganda, tildagi so'zlar ma'lum turkum predmet va hodisalarni anglatishiga ko'ra yaqinlikka egadir. Masalan, kiyim-kechaklar nomini ifodalovchi so'zlar. Ushbu turkum predmetlar nomi sifatida bir guruhga, o'simliklar nomi bo'lgan so'zlar va boshqa guruhlarga birlashadi.

Tilshunoslik doirasida birliklarni mana shunday asosda tasniflash so'zlarning uyadoshlik qatorlari (tematik guruhlar) yoki so'zlarning uyadoshlik guruhlari sifatida nomlangan. So'zlarni uyadosh sinflarga ajratish birliklarni ularning ma'nosiga hamda nominatsion funksiyasiga asoslangan holda o'xshash qatorlarga jamlashni nazarda tutadi. Demak, so'zlarning uyadoshlik qatori deyilganda bir umumiy g'oya, mavzu atrofiga jamlangan (uyg'unlashgan) birliklarni muayyan guruhlarga (temalarga) yig'ish tushuniladi. Uyadoshlik bilan birgalikda tilshunoslik doirasida tematik guruhlar tushunchasi ham qo'llanadi. "So'zlarni tematik qatorlarga jamlash tilning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda emas, balki ko'proq tashqi belgilar asosida amalga oshiriladi. Bunda so'zning o'z ma'nosiga ko'ra qaysi turkum predmetga aloqadorligi, qaysi turkum predmetning nomi ekani yetakchi o'rin tutadi. Bu jihatdan so'zlarni tematik qatorlarga ajratish usuli so'zlarni leksik-semantik guruhlarga ajratib o'rganish usuliga qarama-qarshi turadi va u o'zida tilning spetsifik munosabatlarini gavdalantirmaydi."[3] Bu boradagi qarashlar shuni ko'rsatadiki, so'zlarning uyadoshlik qatori degan tushuncha tilshunoslik doirasida tasnif qilish turli shakllarda nomlanib, qo'llanib kelingan. Bu usulda foydalanishda izchillikka amal qilinmagan. Natijada tilshunoslikda bu usulni turlicha nomlar bilan ifoda etish hollari uchraydi. Chunonchi, N.M.Shanskiy rus tilining o'z qatlam so'zlarini tasnif qilar ekan, guruh (gruppa) terminini qo'llaydi,[4] D.N.Shmelyov esa, shunchaki "…bunday so'zlarga shular kiradi…" iborasidan[5] foydalanadi.

M.I.Fominaning asarida "genetik gruppalar" terminini[6] uchratamiz. Qoraqalpoq tilshunosi E.Berdimuratov qoraqalpoq tilidagi umumturkiy so'zlarni tematik qatorlarga ajratar ekan, "so'zlarning quyidagi turlari mavjud" iborasidan[7] foydalanadi. Yuqoridagi misollar ham tilshunoslik olamida uyadoshlik masalasi nomlanishi atroflicha ekanligini ifoda etib turibdi. Nom masalasi farqli bo'lsa-da, asosiy tadqiqot manbayi bo'lgan so'zlarning ma'noviy munosabatlari doirasidagi birliklarni uyadoshlik asosida tadqiq etish barcha tillarda uyg'unlik asosida qaror topadi.

[1] Морковкин В. В. Идеографический словаръ. М., 1970; Караулов Ю. Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языика. М., 1981, с. 149.

[2] Фомина М. И. Лексика современного русского языка. – М., 1973. – С. 7 - 8.

[3] Голъдин В. Е. Об одном аспекте изучения тематических групп слов. В сб.: Язык и общество. Вып. 2. – М., 1970. – С. 163.

[4] Шанский Н. М. Лексикология современного русского языка. – С. 76.

[5] Шмелёв Д. Н. Современный русский язык. Лексика. – С. 235.

[6] Фомина М. И. Современный русский язык. Лексикология. – М., 1978. – С. 136.

[7] Бердимуратов Е. Ҳозирги заман қарақалпақ тили. Лексика. – Нукис, 1964. – Б. 72.

Tillararo uyadoshlik hodisalarini tadqiq etish, bir-biriga solishtirish, chog‘ishtirish usuli orqali leksikalarning mazmuniy ko‘lamini belgilab olishga imkoniyat yaratadi.

**Rezyume.** Ushbu maqolada tilning lug‘at tarkibidan o‘rin olgan uyadosh birliklar va ularni maydon nazariyasi asosida tasniflash haqida fikr yuritilgan. Tilning lug‘at tarkibini shakllantirishda maydon metodi asosida uyadosh so‘zlarning o‘quv izohli lug‘atini yuzaga keltirish ham nazarda tutilgan. Shuningdek, tildagi leksemalarni mazmuniy uyalarga birlashtirib, ideografik aspektda tasniflash tilda ahamiyatga ega hodisa sifatida keltirilgan.

**Resume.** This article discusses nested units from the vocabulary of the language and their classification based on field theory. In the formation of the vocabulary of the language, it is also envisaged to create an educational explanatory dictionary of nested words based on the field method. Also, combining lexemes in the language into meaningful nests and classifying them in the ideographic aspect is presented as an important phenomenon in the language.

**Резюме.** В данной статье рассматриваются вложенные единицы словаря языка и их классификация на основе теории поля. При формировании словарного запаса языка предусматривается также создание учебного толкового словаря вложенных слов на основе полевого метода. Также важным явлением в языке представляется объединение лексем в языке в смысловые гнезда и классификация их в идеографическом аспекте.